

KOVUL, KOVAR (CAPPARIS SPINOSA) O‘SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Mardonov Sherzod

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi.

Ramazonova Gulsanam

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095887>

Annotatsiya. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi natijasida yovvoyi tabiatga antropogen pressningortishi kuzatilmoqda. Bu holat ko‘plab tabiiy hududlarning mahalliy aholi tomonidan ekin maydonlariga aylantirilishi, kamyob turlarni savdo maqsadlarida terib olish hajmlarining keskin ortishi kabilarda namoyon bo‘lmoqda. Tabiatga nisbatan bunday yondashuvoqibatida capparispinosa ning tabiiy maydonlari qisqarishi hamda ayrim senopopulyatsiyalarida uning zaxirasi keskin kamayib ketishi kuzatilmoqda.

Kalit so‘zlar: kovul, capparispinosa, Magnoliyatoifa, Angyospermae, Dicotyledones, Capparaceae.

BIOLOGY AND HEALING PROPERTIES OF THE PLANT KOVUL, KOVAR (CAPPARIS SPINOSA).

Abstract. In recent years, as a result of the rapid development of agriculture, there has been an increase in anthropogenic pressure on the animal world. This situation is manifested in the transformation of many natural areas into cultivated areas by the local population, and a sharp increase in the volume of production of rare species for commercial purposes. As a result of this approach to nature, the natural habitats of capparispinosa are decreasing, and a sharp decline in its reserves is observed in some hay populations.

Key words: kovul, Sapparispinosa, Magnoliatoifa, Angospermae, Disotyledones, Sapparaceae.

БИОЛОГИЯ И ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ КОВУЛ, КОВАР (CAPPARIS SPINOSA).

Аннотация. В последние годы в результате бурного развития сельского хозяйства наблюдается усиление антропогенной нагрузки на животный мир. Такая ситуация проявляется в превращении многих природных территорий в посевные площади местным населением, резком увеличении объемов добычи редких видов в промысловых целях. В результате такого подхода к природе природными ареалами capparispinosa являются. снижается, и наблюдается резкое снижение его запасов в некоторых сенопопуляциях.

Ключевые слова: *ковул, сиппарис спиноса, Магнолиятоифа, Ангэспермае, Дикотйледонес, Сиппарасеае.*

Кирish. Jahon hamjamiyati sayyoramizdagi bioxilma-xillikning kamayib borishidan jiddiy xavotirga tushgan. Bunga YuNESKO ko‘magida Biologiya fanlarining halqaro uyushmasi Bosh assambleyasida qabul qilingan «Diversitas» Halqaro dasturi (1991) va biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha Halqaro konvensiya qabul qilinishi (Rio de-Janeyro, 1992) guvohlik beradi. Shu bilan birga «Diversitas» dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar sayyoramizning bioxilma-xilligi to‘liq ro‘yxatga olinmaganligini, ayniqsa ekologik jihatdan populyatsiya darajasida juda kam o‘rganilganligini ko‘rsatdi (Global Biodiversity Assessment, 1995). S.D. Tomasning (Thomas et al., 2004) hisobotiga ko‘ra, iqlimning global o‘zgarishi oqibatida 2050 yilga kelib asosan tor arealli turlarning 1 milliondan ortig‘i yo‘qolib ketishi mumkin. Bularning barchasi, shubhasiz, turli ekosistemalardagi populyatsion bioxilma-xillikning turli formalarini tadqiq qilish masalalari dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Dorivor o‘simliklardan xalq tabobatida har xil damlamalar va malhamlar tayyorlab foydalanib kelingan, keyinchalik fan va texnikaning rivojlanishi bilan olimlarning o‘simliklarga bo‘lgan qiziqishi ortib bordi. Ular mukammal o‘rganilib, rasmiy tibbiyotda keng qo‘llanila boshlandi.

Tikanli kovul *Capparis spinosa* L. Magnoliyatoifa yoki Yopiq urug‘li o‘simliklar Magnoliophyta yoki Angyospermae bo‘limi Ikki urug‘pallalilar-Dicotyledones sinfi Kovulnamolar-Capparales qabilasi Kovuldoshlar-Capparaceae oilasi Kovul -*Capparis* L. turkumiga mansub o‘simlikdir.

Tikanli kovul *Capparis spinosa* ko‘p yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, u juda ko‘p yotib o‘suvchi novdalarga ega. Ular yashil rangda bo‘lib, tukchasiz, ba‘zan esa ozroq tukchali bo‘ladi. Poyasi sudralib o‘suvchi, tikonli, shoxlangan, uzunligi 2,5 m gacha bo‘ladi. Barglari teskari tuxumsimon yoki ellipsimon. Barg bandi va gulbandi hosil bo‘lgan joyda o‘tkir tikanlari bor.

Gullari oq. Barg qo‘ltig‘iga joylashgan. Barglari och yashil rangda, mum bilan qoplanganga o‘xshaydi, ellips shaklida va bandli bo‘ladi. Barg yonligi uncha katta emas, tikanli. Kovul maydan to oktyabr oyigacha o‘sadi. Dona-dona gullaydi. Guli nihoyatda go‘zal bo‘lib, ertalab ochiladi va kechga borib yopiladi. Kovul barglarining yonidan uzun band chiqarib gullaydi. Gul aylanasiga 3 santimetrgacha bo‘ladi, oqish pushti rangli gullarning o‘rtasida uzun nafarmon tuklari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kovul bir uyali go‘shli rezavor meva beradi. Mevasi teskari tuxumsimon yoki cho‘zinchoq-yumaloq shaklli, ko‘p urug‘li, bir necha meva bargidan tashkil

topgan, sershira bo‘lib, tarvuzga o‘xshab ketadi.

May-iyun oylarida gullaydi, iyul-avgustda mevasi etiladi.



Bu dorivor o‘simlikning mevalari tarkibida saponinlar, alkaloidlar, 32,9 foiz uglevodlar, 150 mg askorbin kislota, 3,75 foiz moy, ildiz po‘stlog‘ida staxidrin alkaloidi mavjud.

Kovul yoki kavar o‘simligi tabiiy holda O‘rtaer dengizi, Yevropa janubida, Kavkazda, O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda, Pokiston va Hindistonda tarqalgan. Bu o‘simlik Fransiya, Ispaniya, Italiya, Aljir hamda Kiprda, Gresiya va Shimoliy Amerikada madaniylashtirilgan bo‘lib, landshaftlarning bezagi hisoblanadi. O‘simlikning nomi Eronagi Dashti-Kavir cho‘li bilan bog‘liq holda atalgan. Chunki kovul bu hududlarda eng ko‘p uchraydigan o‘simlik sifatida ajralib turadi.

Kovul dorivor o‘simlik bo‘lishi bilan bir qatorda oziq-ovqatda ham ishlatiladi. Kovulning g‘unchali novdalari, g‘unchalari, rivojlanayotgan mevalari sirka kislotasida marinovat qilinadi hamda oziq-ovqatda «kaperslar» nomi bilan mashhur dori-darmon ko‘rinishida foydalaniladi. Hindular kovulni kobra, kabra yoki kabarra nomlari bilan atashadi hamda o‘simlik organlari qo‘shib tayyorlangan oziq-ovqatlarni yoqtirib iste‘mol qilishadi.

Tabobatda pishgan mevasi, barglari, novda va ildiz po‘stlog‘i ishlatiladi.

May-avgust oylarida ochilmagan g‘unchalari, barglari terib olinadi. Shu bilan birga yosh, yog‘ochlasha boshlagan novdalari va ildizining po‘stlog‘i shilib olinadi, maydalanadi hamda quyoshda yoki 50-60°S haroratda quritiladi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Қизил Китоби. Ўсимликлар ва замбуруғлар. – Тошкент, «Chinor ENK», 2009. – Т. I. – 122-123-б.
2. Работнов Т.А. Фитоценология. 3-е изд. – М.: Изд-во МГУ, 1992. -349 с.
3. Шомуродов Ҳ.Ф. Қизилқумнинг ем-хашак ўсимликлари ва улардан фойдаланиш истиқболлари: Биол. фан. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 63 б.
4. Заугольнова Л.Б., Жукова Л.А., Комаров А.С., Смиронова О.В. Ценопопуляции растений. Очерки популяционной биологии. – М.: Наука, 1988. – 184 с.
5. М.О. Бўранова., Ўзбекистон жануби шароитида *lipskya insignis* (koso- pol.) Nevskining биоэкологик хусусиятлари. Биол. фан. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 45 б.